



INVESTITSION KAFOLATLAR TUSHUNCHASI VA INVESTITSION  
KAFOLATLARNI XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Axmatjonova Mohlaroy Mahmudjon qizi

Toshkent davlat Yuridik Universiteti Xususiy huquq fakulteti talabasi

Email: [axmadjonovamohlaroyim@gmail.com](mailto:axmadjonovamohlaroyim@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur kichik izlanishlardan iborat ilmiy-tahliliy maqolada milliy va xalqaro toifadagi investitsiyaviy kafolatlarning tushunchasi, ularning aynan O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi bilan tahlillar va ularning xalqaro-huquqiy normalar, standartlar, umumiy tamoyillarga muvofiq ekanligi borasidagi nazariy tahlillar yoritib berilgan. Shu bilan bir qatorda, investorlar uchun milliy qonunchilikda belgilab qo'yilgan har bir kafolat alohida alohida tahlil qilingan holda, mohiyati ochib berilgan. Bundan tashqari MIGA (Ko'p tomonlama Investitsiyalarni kafolatlash Agentligi)da investorlar uchun mustahkamlangan kafolatlarni xalqaro huquqiy tartibga solish masalalari tahlil qilingan holda, uni milliy qonunchilik bilan bog'lash imkoniyatlari ochib berilgan.

**Keywords:** MIGA, ICSID, BIT, investitsiya siyosati, investitsiya kafolati, mablag'larni erkin o'tkazish, repatriatsiya, ekspropatsiya, investor, davlat organlari, sug'urta, imtiyoz, preferensiya.

**ПОНЯТИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ГАРАНТИЙ И МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ГАРАНТИЙ**

Ахматжонова Мохларой Махмуджон қизи

Ташкентский государственный юридический университет, факультет частного права, студентка

Email: [axmadjonovamohlaroyim@gmail.com](mailto:axmadjonovamohlaroyim@gmail.com)

**Аннотация:** В данной научно-аналитической статье, состоящей из небольших исследований, разъясняется понятие национальных и международных инвестиционных гарантий, их анализ с национальным законодательством Республики Узбекистан, теоретический анализ их соответствия международно-правовым нормам, стандартам и общим принципы. Кроме того, каждая гарантия, установленная национальным законодательством для инвесторов, анализируется в отдельности и раскрывается ее сущность. Кроме того, MIGA (Многостороннее агентство по гарантированию инвестиций) проанализировало вопросы международно-правового регулирования усиленных гарантий для инвесторов, и выявило возможности его увязки с национальным законодательством.

**Ключевые слова:** MIGA, ICSID, BIT, инвестиционная политика, инвестиционная гарантия, свободный перевод средств, репатриация, экспроприация, инвестор, государственные органы, страхование, привилегия, преференция.



CONCEPT OF INVESTMENT GUARANTEES AND INTERNATIONAL LEGAL  
REGULATION OF INVESTMENT GUARANTEES

Akhmatjonova Mokhlaroy Makhmudjon qizi

Tashkent State Law University, student of Faculty of Private Law,

Email: [axmadjonovamohlaroyim@gmail.com](mailto:axmadjonovamohlaroyim@gmail.com)

**Abstract:** *This scientific-analytical article, consisting of small studies, explains the concept of national and international investment guarantees, their analysis with the national legislation of the Republic of Uzbekistan, and theoretical analysis of their compliance with international legal norms, standards, and general principles. In addition, each guarantee established by the national legislation for investors is analyzed individually and its essence is revealed. In addition, MIGA (Multilateral Investment Guarantee Agency) analyzed the issues of international legal regulation of strengthened guarantees for investors, and revealed the possibilities of connecting it with national legislation.*

**Keywords:** MIGA, ICSID, BIT, investment policy, investment guarantee, free transfer of funds, repatriation, expropriation, investor, state bodies, insurance, privilege, preference.

**Tadqiqot natijalari:** Investitsiya faoliyati har bir mamlakatning ayniqsa rivojlanib borayotgan davlatlarning iqtisodiy o'sishiga xizmat qiladigan asosiy omil hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham investitsiyaga berilgan ko'plab tariflarda ma'lum bir yo'naltirilgan sohani rivojlantirish uchun kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar tushunilishi aytiladi. Bundan tashqari investitsiya faoliyatida uning siyosatiga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbekiston misolida olib qaraydigan bo'lsak, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 598-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonunning 3-moddasi 3-kichik xatboshisida ham investitsiya siyosati — O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investitsiyalarning zarur darajasini va tuzilmasini ta'minlashga, investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiya manbalarini topishga va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo'naltirilgan investitsiyaviy faolligini oshirishga doir o'zaro bog'liq tadbirlar majmui hisoblanishi belgilab qo'yilgan.<sup>6</sup> Aynan mazkur asoslarga ko'ra, investitsiyalar mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotida muhim hisoblanadi. Har bir sohada bo'lgani kabi investitsiya faoliyatida ham milliy va xalqaro qonunchiliklar bilan belgilab qo'yilgan maxsus kafolatlar va imtiyozlar mavjud. Ushbu imtiyoz va kafolatlar investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi uning subyektlari, investorlar, investitsiya faoliyati ishtirokchilariga investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonida taqdim etiladi. Biroq investorlar bilan shartnoma imzolanmasidan, hatto undan ham avval investor mazkur sohaga qiziqish bildirgan paytdan e'tiboran ushbu kafolatlar, imtiyozlar bilan tanishib chiqadi va o'ziga maqbul usulni tanlaydi. Investitsiya kafolati - bu yuqori darajadagi tavakkalchilikka ega bo'lgan investitsiya faoliyati natijasida investorlarni yo'qotishlardan himoya qilish uchun

<sup>6</sup> <https://lex.uz/docs/-4664142#-4664456> "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 598-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni



mo'ljallangan maxsus shart hisoblanib, mazkur kafolatlar asosan xalqaro standartlar va xalqaro umum e'tirof etilgan tamoyillarga mos ravishda har bir davlatning o'z milliy qonunchiligida aniq talab va shartlar asosida belgilab qo'yiladi va ular davlat tomonidan himoya qilinadi. Investitsion kafolatning maqsadi oldindan aytib bo'lmaydigan va odatiy va ma'lum xavf omillari doirasidan tashqarida ko'rib chiqiladigan holatlar yoki hodisalar yuzaga kelgan taqdirda investorning manfaatlarini himoya qilishdir. Investitsion kafolatning bir qismi sifatida taqdim etiladigan himoya darajasi investitsiya xarakteriga va qabul qiluvchi mamlakatda mavjud sharoitlarga qarab o'zgaradi. Aynan shuning uchun ham, xalqaro investitsiya huquqida xalqaro huquqiy kafolatlar deyilganda investor hisoblangan davlat yoki xalqaro tashkilotning huquqiy manfaatlarini himoya qilish borasida shartnomaviy majburiyatlarini bajarishi uchun shart-sharoitlarni yaratib berish majburiyatini ikkinchi taraf tomonidan olinganligi tushuniladi. Xalqaro investitsiya huquqi bo'yicha oliy toifali mutaxassis, professor **Kathryn Gordonning** fikricha, investitsion kafolatlar mahsulotlarning keng assortimentini qamrab oladi va har qanday sifatda belgilanishi mumkin bo'lgan

kafolat va yoki xalqaro investitsiyalar uchun tegishli sug'urta mahsulotlariga aloqador bo'lishi mumkin. Siyosiy xavf sug'urtasi (PR) ana shunday kafolatlardan biridir. Jahon banki guruhining MIGA (Ko'p tomonlama Investitsiyalarni kafolatlash Agentlik) siyosiy riskni quyidagicha belgilaydi:

- ✓ Siyosiy risklar huquqlarni inkor etuvchi yoki cheklovchi hukumat harakatlariga taalluqlidir;
- ✓ investoro'z aktivlaridan foydalanish yoki undan foyda olish huquqiga ega hisoblanadi;
- ✓ investor o'zi egalik qilayotgan firma qiymatini pasaytira oladi;
- ✓ Siyosiy xavf-xatarlarga urush, inqiloblar, hukumatning mulkni tortib olishi va cheklovchi choralar kiradi;
- ✓ mamlakat ichidagi foyda yoki boshqa daromadlarning harakatini ham o'ziga tegishli qiymatida investor boshqarishi mumkin.<sup>7</sup>

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi so'zlari ham Investitsiyaning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni yetarli darajada ekanligini ko'rsatadi. «Barchamiz bir oddiy haqiqatni yaxshi anglab olishimiz darkor - investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi» **Islom Karimov**

Investitsiya faoliyati davomida investitsiya faoliyati subyetklariga beriladigan davlat kafolatlari, imtiyozlari va preferensiyalarining o'z navbatida bir-biridan farqli jihatlari mavjud, bundan tashqari milliy qonunchilikka ko'ra, chet ellik va mahalliy investorlarga nisbatan qo'llaniladigan kafolatlar va imtiyozlarda ham anchagina farqli jihatlar mavjud. Aytib o'tish joizki, davlat kafolatlari aniq tarzda har doim davlat tomonidan qonunchilikda aniq shartlar va tartiblar asosida belgilab qo'yiladi, biroq imtiyoz va preferensiyalarning berilishi ham qonunda belgilab qo'yilgani bilan, ularning qanday tartibda, qanday

<sup>7</sup> <https://www.oecd.org/pensions/insurance/44230805.pdf> ISBN 978-92-64-05683-1

OECD Investment Policy Perspectives 2008

© OECD 2008



miqdorlarda qanday asoslarda berilishi investitsiyaning qaysi sohaga, qanday miqdorda, qanday asos va shartlar asosida kiritilayotgunga qarab davlat tomonidan belgilab beriladi. Bundan tashqari kafolatlar qonunda mavjud bo'lishiga qaramay, investitsiya shartnomasi tuzilganidan va amalga oshirilishi boshlanganidan so'ng amal qila boshlaydi, imtiyozlar ham o'z navbatida shunday, ular investorlarni jalb qilishning asosi ham hisoblanadi. Shuningdek imtiyozlar asosan, davlatlar o'rtasida tuzilgan ikki tomonlama BIT shartnomalarida belgilangan asoslarga ko'ra belgilanadi va mamlakatning bir davlat bilan tuzgan BIT shartnomasi boshqa bir davlat bilan tuzilgan BIT shartnomasidan tubdan farqlanishi mumkin. Biroq, agar nizoli vaziyat yuzaga kelgan taqdirda investor o'z huquqlarini himoya qilish maqsadida o'zi olib borayogan investitsion faoliyati uchun o'zining mamlakati bilan tuzilgan BIT ni emas, imtiyozlari va kafolatlarni qo'llash msalasida boshqa bir davlat bilan tuzilgan BITni qo'llashni talab qilishga haqli. Davlat tomonidan qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan kafolatlar investitsiya shartnomasi qaysi davlat bilan, yoki qaysi davlatning fuqarosi bilan tuzilganligidan, BITda qanday shartlar kiritilganidan qat'iy nazar barcha investorlar uchun bir xilda qo'llaniladi. Xalqaro investitsiya huquqida investitsiyalarni himoya qilishning asosiy ikkita yetakchi universal shartnomalari mavjud bo'lib, birinchisi 1985-yilgi Seul Konvensiyasi (*"Multilateral Investment Guarantee agency – Ko'p tomonlama investitsiya kafolatlari Agentligi"*) bunda buyon matnda MIGA deb yuritiladi), mazkur konvensiya bilan chet ellik investorlarning mulk huquqlarini himoya qilish maqsadida ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligi ham tashkil etilgan, ikkinchisi 1965-yilgi davlat, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilish to'g'risidagi Washington Konvensiyasi asosiy rol o'ynaydi. Seul Konvensiyasiga hozirgi kunda 30 dan oshiq rivojlangan mamlakatlar va 140 ga yaqin rivojlanib borayotgan davlatlar a'zosi hisoblanadi. Bu esa investorlarning mulkiy huquqlarini xususiy huquq doirasidan xalqaro huquq doirasigacha ko'tarilishiga va mamlakatlar mazkur investitsion masalalarga, nizolarni maqbul usulda hal etishga astoydil e'tibor qaratyotganidan dalolat beradi. Yuqorida ham aytib o'tilganidek, investitsion kafolatlar xalqaro investitsiya huquqi tamoyillariga va standartlariga mos ravishda ha bir davlatning milliy qonunchiligida belgilab qo'yiladi. Bu o'z navbatida investorlarga beriladigan kafolatlar xalqaro investitsiya huquqining asosiy tamoyillari bilan ham bog'liq ekanligini ko'rsatib beradi. MIGAg a'zo bo'lgan davlatlar uchun mazkur seul konvensiyasida investitsiyalarni kafolatlashning umumiy shartlari belgilab berilgan bo'lib, Konvensiya 12-moddasida "Kafolatlangan investitsiyalar" masalasi yoritilgan. Unga ko'ra, ushbu kafolatlangan investitsiyalar qatoriga aksiyadorlar tomonidan manfaatdor shaxslar uchun berilgan yoki ular tomonidan kafolatlangan uzoq muddatli kreditlar va direktorlar kengashi tomonidan belgilanishi mumkin bo'lgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni kiritish mumkin. Shuningdek Direktorlar kengashi o'zlari boshqa har qanday investitsiyalarni kafolatlash imkoniyatini kengaytirish huquqiga egadirlar. Kafolatlar asosan agentning kafolat to'g'risidagi arizasi ro'yxatga olinganidan so'ng belgilanadi va bunday kafolatlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

✓ Investitsiyalarni modernizatsiya qilish, kengaytirish maqsadida amalga oshiriladigan har qanday valyuta o'tkazmalari;





✓ Qabul qiluvchi mamlakatdan o'tkazilishi mumkin bo'lgan mavjud investitsiya fondlaridan foydalanish.

Aytib o'tilganidek, mazkur ikki kafolat mamlakatimiz qonunchiligida ham belgilab qo'yilgan, ya'ni har bir mamlakat investitsion kafolatlar masalasida o'z milliy qonunchiligini xalqaro standartlarga asosan shakllantirishi lozimligi milliy qonunchiligimizda o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasining 598-sonli "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi Qonunining 16-moddasida "Mablag'lardan erkin foydalanish kafolati" va 17-moddasida "Mablag'larni erkin o'tkazish kafolati" mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur normalarga ko'ra, investitsiya faoliyatining subyekti o'z faoliyati natijasida, olgan daromadlarini soliqlar va boshqa to'lovlarni to'laganidan so'ng, o'z xohishiga ko'ra reinvestitsiya qilishi yoki boshqa usullarda erkin foydalanishi mumkin. Chet el va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining hisobvarag'laridan majburiy tarzda pul yechib olish va moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirishni cheklash faqatgina qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, bunga q'shimcha tarzda soliqlarni va to'lovlarni to'lash sharti bilan respublikamizga va respublikamizdan chet el valyutasidagi mablag'larni erkin o'tkazish va uni repatriatsiya qilish, ya'ni qaytarish uchun ayirboshlash kafolati ham mustahkamlangan. Biroq davlat faqatgina chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonaga to'lovga layoqatsiz yoki bankrot bo'lgan holatida, kreditorlarning huquqlari buzilganida, jismoniy shaxs bo'lgan chet elik investor jinoiy qilmish yoki ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganida, sud yoki arbitraj qaroriga muvofiq repatriatsiya qilishning boshqa zaruriy holatlari yuzaga kelganda, mamlakatimi qonunchiligi va xalqaro shartnomalarda belgilab qo'yilgan shart va tartiblar asosida, investorlarni boshqacha tarzda kamsitmagan holatda repatriatsiya jarayonini to'xtatib turishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.<sup>8</sup>

Bundan tashqari, MIGAda belgilangan ikki kafolatga qo'shimcha tarzda yuqoridagi qonunning 18-moddasida, "Investitsiya faoiyati tugatilishi munosabati bilan chet el investitsiyalarini qaytarish" kafolati ham mavjud bo'lib, chet ellik investor respublikamizda amalga oshirayotgan investitsiya faoliyatini tugatish huquqiga ega. Bunga qo'shimcha tarzda mazkur faoliyat tugatilganidan so'ng, invstitsiya faoliyatini tugatish natijasida olingan aktivlarini naqd pul yoki natural shaklda respublikaga va boshqa kreditorlarga zarar yetkazmagan holda erkin repatriatsiya qilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Tabiiyki, aytilganidek, investitsiya faoliyatini to'xtatish ya'ni investitsiya shartnomasini chet ellik investor tomonidan bir tomonlama bekor qilish uning huquqi, biroq u bu huquqini amalga oshirish mobaynida yuqorida aytib o'tilganidek respublika manfaatlariga ziyon yetkazmasligi lozim. Ya'ni agar chet ellik investor O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan tuzilgan investitsiya shartnomasini bir tomonlama bekor qilgan taqdirda, mazkur shartnoma yuzasidan unga berilgan kafolatlar imtiyozlar va preferensiyalar tufayli O'zbekiston respublikasi budjetiga to'lanmagan soliqlar va to'lovlarning summalarini to'lashiga to'g'ri keladi.<sup>9</sup>

<sup>8</sup> <https://lex.uz/docs/-4664142#-4664456> "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 598-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni

<sup>9</sup> <https://lex.uz/docs/-4664142#-4664456> "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 598-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni



Yuqoridagi Seul Konvensiyasida belgilab qo'yilgan kafolatlarni agentlik tomonidan tasdiqlanishi uchun ham bir qancha talablar mavjud. Bular:

- Investitsiyalarning iqtisodiy maqsadga muvofiq ekanligi va ular qabul qiluvchi davlatning iqtisodiy rivojiga qo'shgan hissasi;
- Investitsiyalarning qabul qiluvchi davlat qonunchiligiga muvofiq ekanligi;
- Investitsiyalarning qabul qiluvchi davlatning belgilangan maqsadlari va ustuvorliklariga muvofiqligi;
- Investitsiyalarni qabul qiluvchi davlatda investitsiyalarga nisbatan teng huquqli, adolatli munosabatning mavjudligi va investitsiyalarni himoya qilish uchun shart-sharoitlarning yaratilganligi.<sup>10</sup>

E'tiborli jihati shundan iboratki, milliy qonunchilikdan farqli ravishda MIGA tomonidan beriladigan kafolatlarni investor o'zi so'rab oladi. Milliy qonunchilikda esa, qonunchilik talablariga javob beradigan va unga zid bo'lmagan harakatlarni amalga oshirayotgan har qanday shaxslarga qonunda belgilab qo'yilgan kafolatlardan erkin foydalanish huquqi berilgan. MIGAda esa investor o'z huquqlarini himoya qilish uchun agentlikdan kafolatlarni o'zi so'rab oladi. Buning uchun u agentlikka ariza bilan murojaat qilishi lozim. Investorning arizasi tasdiqlanishi uchun ham investorning faoliyat yuritishiga bog'liq bo'lgan talablar bilan bir qatorda uning shaxsiga doir qo'yilgan bir qancha talablar ham mavjud. Xususan, kafolat olish uchun ariza topshirgan shaxs investitsiyani qabul qiluvchi davlatdan boshqa davlat fuqarosi bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs bo'lgan investor bir necha fuqarolikka ega bo'lsa va ulardan biri MIGAning a'zosi bo'lmasa, a'zo davlatning fuqaroligi ustun keladi va qabul qilinadi. Agarda kafolatga da'vogar shaxs yuridik shaxs bo'lsa, uning asosiy muassalari MIGAg a'zo davlatlardan birida joylashgan bo'lishi, yoki kapitalining asosiy qismi a'zo davlat yoki a'zo davlatlar fuqarolariga tegishli bo'lishi, yoki investitsiyani qabul qiluvchi tomon ham a'zo davlatlarning birortasida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs yoki fuqaroligi bo'lgan shaxs bo'lishi talab etiladi. Ma'lumki, davlat ham bevosita xalqaro investitsiya huquqining subyekti hisoblanadi, biroq davlat investor sifatida yuqorida sanab o'tilgan huquqlardan foydalanmaydi, ya'ni investor sifatida kafolatlarga ega bo'lish uchun agentlikka ariza bilan murojaat qilolmaydi. Davlat investor sifatida faoliyat yuritganda, u investitsiya shartnomasida va ikki tomonlama BITlarda nazarda tutilgan kafolatlardan foydalanadi va investitsiya faoliyati natijasida uni huquqlariga ziyon yetkazilgan taqdirda ICSIDga murojaat qilish orqali o'z huquqlarini himoya qilinishini ta'minlashi mumkin. Shuni ham e'tiborga olish kerakki, Seul Konvensiyasida belgilab qo'yilgan kafolatlarni berish tartibi faqatgina investitsiyalar rivojlanayotgan davlatlar hududida amalga oshirilsa kafolatlanadi. Bundan tashqari, kafolatlar Agentlik tomonidan kafolatlanishi uchun qabul qiluvchi davlat tomonidan ham ma'qullanishi lozim. Mazkur protsess amalga oshirilganidan so'nggina Agentlik Kafolat shartnomasini tuzadi, shartnoma direktorlar kengashi tomonidan o'rganib chiqilib, asosli deb topilganidan so'ng Prezident tomonidan tasdiqlanadi.<sup>11</sup> Yuqorida sharhlab o'tilgan

<sup>10</sup> <https://lex.uz/docs/2667724> Конвенция “Об учреждении Многостороннего агентства по гарантиям инвестиций” Сеул, 11 октября 1985 года

<sup>11</sup> <https://lex.uz/docs/2667724> Конвенция “Об учреждении Многостороннего агентства по гарантиям инвестиций” Сеул, 11 октября 1985 года



kafolatlardan tashqari MIGA va milliy qonunchilikda yana bir qancha kafolatlar mavjud. Xususan milliy qonunchilikda, ya'ni O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 598-sonli Qonunning 3-bobi ya'ni 15-23-moddalari aynan investitsiya faoliyatida beriladigan davlat kafolatlariga bag'ishlanadi. Yuqorida mazkur kafolatlarning ayrim turlari tahlil qilib o'tildi. Demak navbat qolgan kafolat turlariga, xususan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida va uning hududida bevosita faoliyat yuritayotgan investitsiya faoliyati subyektlari uchun maxsus kafolatlar berilgan bo'lib, ushbu kafolatlar maxsus subyektlar uchun beriladigan dastlabki va asosiy kafolatlar hisoblanadi. Ushbu kafolatlariga ko'ra davlat va uning organlari investitsiya faoliyati bilan qonuniy asoslarga ko'ra shug'ullanib kelayotgan subyektlarning faoliyatiga aralashishi mumkin emas. Bundan faqatgina ularning faoliyatida qonun buzilishi holatlari aniqlangan taqdirda o'z vakolatlari doirasida harakat qilishga haqlidirlar. Bundan tashqari umumiy inson huquqlari tamoyillaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, davlat va organlar investorlarni fuqaroligi, yashash joyi, iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish joyi bilan bog'liq holda, shuningdek investorlarning yoki investitsiyalarning kelib chiqish mamlakatiga qarab har qanday usulda kamsitilishiga yo'l qo'ymasliklari lozim. Bir investorning huquqlari himoya qilinishi jarayonida boshqa birining manfaatlariga ziyon yetkazilishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Mazkur vaziyatda davlat ham MCHJ yoki AJning ta'asischi va aksiyadori bo'lgan taqdirda boshqa subyektlar bilan teng huquq va maqomda bo'lishi belgilangan. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, qonunchilikda belgilab qo'yilgan ko'plab kafolatlarning qoidalari, xalqaro huquqning umume'tirof etiladigan prinsip va normalari bilan belgilanadigan O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligiga doir qonunchilikni qabul qilishga, o'zgartirishga, to'ldirishga va bekor qilishga nisbatan qo'llanilmaydi. Milliy qonunchilikda investorlarga nisbatan beriladigan kafolatlarning yana bir oltin namunasi sifatida e'tirof etish mumkin bo'lgan kafolat bu- 598-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni 19-moddasiga binoan, Qonunchilikning investor uchun noqulay o'zgarishlariga qarshi kafolatlari hisoblanadi. Ya'ni agar qonunchilikka kiritiladigan o'zgarish va qo'shimchalar investor uchun noqulaylik keltirib chiqarsa mazkur qonun hujjati orqaga qaytish kuchiga ega bo'lmaydi. Aytaylik, 2015 yil ma'lum bir sohaga investor tomonidan investitsiya qilindi va 5 yildan so'ng investorning faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan qonun hujjati qabul qilindi va bu investor uchun noqulayliklarni keltirib chiqarishi mumkin, bunday holatda investorga investitsiya qilish paytida amakda bo'lgan qonun hujjatini investitsiya qilish paytidan e'tiboran 10 yil davomida ya'ni 2015 yilda kuchda bo'lgan qonun hujjatini 2025 yilga qadar o'z faoliyatiga tatbiq qilishga investorda huquq paydo bo'ladi. Qanday hollarda mazkur huquq paydo bo'ladi? degan savolga esa albatta javob sifatida investor investitsiya faoliyati davomida foydalanishi mumkin bo'lgan huquqlarni keltirish mumkin. Shu bilan bir qatorda davlatning majburiyatlari orasida investitsiya faoliyati bilan bog'liq, yoki bevosita mazkur faoliyatga aloqador bo'lgan sohalarda chiqarilgan qonunchilik hujjatlarini rasmiy e'lon qilmasdan tatbiq etmaslik ham mavjud bo'lib, mazkur turdagi hujjatlar qabul qilinganda, yoki bo'lmasa davlat investitsiya faoliyati bilan bog'liq boshqa ko'plab harakatlarni amalga oshirganda, bu haqda investorlarni ochiq va oshkora tarzda axborot olishlarini ta'minlashi shart va bu ham investor uchun berilgan milliy qonunchilikdagi navbatdagi kafolat hisoblanadi.



Qonunchilikda nazarda tutilgan va fors-major holatlardan tashqari boshqa odatiy vaziyatlarda investorlarning mulklarini, investitsiyalarni ekspropatsiya qilinishiga yo'l qo'yilmasligi ham, yo'l qo'yilgan taqdirda ham unng yuqorida nazarda tutilgan ikki noodatiy holatni isbotlab berish majburiyatining mavjudligi ham kafolat hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Hukumati va boshqa vakolatli organlari tomonidan investitsiya faoliyati davomida investorlarga qo'shimcha kafolat va imtiyozlarni taqdim etish masalasini hal etishlari mumkin. Kafolatlar masalasida agar milliy qonunchilik bilan xalqaro tamoyillar va belgilab qo'yilgan standartlarda nomuvofiqlik aniqlansa, tabiiyki, ziddiyatli vaziyatlarda xalqaro normalarning ustun kelishi ham kafolatlar qatoridan joy olgan.<sup>12</sup>

MIGAning 24-moddasida Agentlik tomonidan beriladigan kafolatlardan tashqari "Homiylilik investitsiyalarining kafolatlari" borasida ham so'z yuritilgan bo'lib, konvensiya 1-ilovasida nazarda tutilgan kafillik shartnomalari bo'yicha investitsiya kafolatlarini berishi mumkin.

**Xulosa:** Investitsiya huquqi, xususan xalqaro investitsiya huquqi boshqa huquq sohalaridan farqli ravishda zamonaviy asrning eng ilg'or rivojlanib borayotgan huquq sohasi hisoblanadi. Sababi k'plab mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanish asoslaridan birini ham aynan investitsion munosabatlar tashkil qiladi. Yana bir e'tiborli jihati shundan iboratki, investitsiya huquqi allaqachon rivojlanib bo'lgan gigant yoki iqtisodiy barqaror davlatlarida emas, endi rivojlanish boshqichiga o'tgan, rivojlanib borayotgan davlatlar muhitida ko'proq o'sib boraveradi. Investitsiya huquqida kafolatlar masalasida esa Xalqaro miqyosda alohida Agentlikning tashkil etilishi mazkur huquq sohasinining xalqaro huquq miqyosidagi o'rnining nechog'lik muhim ekanini yaqqol ko'rsatib beradi. Investitsiya huquqida mustahkamlangan milliy qonunchilikdagi kafolatlar ham umumiy xalqaro standart va tamoyillarga mos ekanligi, milliy qonunchilikda ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratgan holda butun bir qonunning katta bir bobi ajratilgani ham uning muhimligi belgisi hisoblanadi. Sababi investitsiyaviy kafolatlar bu investorlarni jalb qilishning asosi hisoblanadi.

#### REFERENCES:

1. <https://lex.uz/docs/-4664142#-4664456> "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 598-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni
2. <https://lex.uz/docs/2667724> Конвенция "Об учреждении Многостороннего агентства по гарантиям инвестиций" Сеул, 11 октября 1985 года
3. <https://www.oecd.org/pensions/insurance/44230805.pdf> ISBN 978-92-64-05683-1 OECD Investment Policy Perspectives 2008 © OECD 2008
4. M23 InvestitsiyalarDi tasbkil etisb va moliya]asbtirish. B.S. Mamatov, D'yu. Xujamkulov, Nurbekov. DnIslik. T.: IqtisodMoliya, 2014. 608 bet.

<sup>12</sup> <https://lex.uz/docs/-4664142#-4664456> "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 598-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni





5. Hasanov, A., Iltayev, O., Sadullayev, M., & Yokubjonov, S. (2021). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI. Scientific progress, 2(3), 196-202.

6. International Investment Guarantee Agreements and Related Administrative Scheme

INTERNET SAYTLARI:

1. <https://www.lex.uz/>
2. <https://www.miga.org/>